

## Fanlar akademiyasi Mikrobiologiya institutiga press-tur tashkil qilindi

[Avval xabar qilganimizdek](#), Fanlar akademiyasi Mikrobiologiya institutida yangi tajriba-eksperimental laboratoriyasi tashkil qilingan edi.

Bugun, 31-mart kuni ushbu laboratoriyaga press-tur tashkil qilindi. Laboratoriyada farmatsevtika, veterinariya, parrandachilik va baliqchilik uchun yangi xususiyatlarga ega mikrob preparatlar yaratish, ularni kichik hajmda ishlab chiqarish va amaliyotga tadbiiq etish ishlari amalga oshiriladi.

Dastlab, Mikrobiologiya instituti direktori Q.Davronov ommaviy axborot vositalari vakillari uchun matbuot anjumani o'tkazdi va Institut faoliyati, ilmiy ishlanmalar va natijalar haqida qisqacha gapirib berdi. OAV vakillari savollariga javob berdi.





So'ngra, yangi laboratoriyaga ekskursiya tashkil etildi. Press-tur ishtirokchilari laboratoriya ish faoliyati bilan yaqindan tanishishdi. Biopreparatning xom-ashyo holatidan tayyor mahsulot holatigacha bo'lgan jarayonlarini kuzatishdi.





Ushbu laboratoriya yangi avlod biopreparatlarini ishlab chiqishda ilk qadamlardan biri bo'lib, bu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlarda muhim ahamiyat kasb etadi.

